# TURK ELI

## International Scientific Journal




Volume 1 | Special Issue Part 2 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

# TURK ELI
# INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
**Sarvar Ispahi**

Editor-in-Chief
**Jenishbek Duysheev**

Deputy Editor in-Chief
**Rahmonali Hasanov**

**Editorial Board:**

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

**About this Special Issue**

*This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference*
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
**Laziz Baxtiyorov**

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

| | | |
|---|---|---|
| *K. G. Makhamatjonovna* | The Importance of Scientific and Educational Resources in Improving the Information Environment of the Educational Process | 91 |
| *S. Ociyev* | The History and Fate of the Uzbek Delegates to the First Turkological Congress | 93 |
| *M. Tuhtakhujaeva*<br>*G. Kadirova* | Resolving Conflicts between Teachers and Students in Schools: Distinctive Features of Collaboration with Parents | 96 |
| *M. Nazarova* | The Role of Modern Storage Technologies in Reducing Food Waste | 100 |
| *Kh. Nizamova* | The Grammatical Structure of Compliments in Analytic and Agglutinative Languages: A Comparative Study of English and Uzbek | 103 |
| *S. Kh. Butaeva* | The Global Integration of Digital Transformation and the Green Economy | 106 |
| *Sh. T. Dadaboyev* | Privileges and Opportunities Created under State Programs to Promote Youth Self-Employment | 109 |
| *D. Tulevberdiyeva*<br>*G. Ergashev* | Economic Mechanisms for Developing Youth Entrepreneurship in the Digital Economy: The Case of Uzbekistan | 112 |
| *P. Q. Kholmatov*<br>*M. Akhmedova* | Current Issues of Time Management in Pedagogical Practice: The Essence, Prerequisites, Origin, and Major Stages of the Development of Time Management | 115 |
| *R. Khakimov*<br>*S. A. Dustnazarova*<br>*S. Qodirqulov* | The Integration of the Digital Economy and Green Growth in New Uzbekistan: A Driver of Sustainable National Development | 119 |

# Resolving Conflicts between Teachers and Students in Schools: Distinctive Features of Collaboration with Parents

**Tuhtakhujaeva Maxliyokhon** (Teacher)[1]
maxliyoxon.tohtahojayeva@uztitu.uz | ORCID: 0009-0007-7987-0920
**Kadirova Gulchekhra** (Bachelor Student)[1]

[1.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

***Abstract.***
This study analyzes the psychological and pedagogical factors of conflicts and disputes arising between teachers and students in the school environment, as well as the mechanisms for their constructive resolution. It also highlights the importance of effective communication, mediation approaches, and pedagogical intervention methods in conflict prevention. In addition, the specific features of organizing cooperation with parents are examined, and practical ways of strengthening school–family interaction are substantiated.
**Keywords:** conflict, disputes, teacher, student, school environment, psychological factors, pedagogical approach, mediation, school–family cooperation, communication

# Maktablarda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi konflikt va nizolarni bartaraf qilish, ota-onalar bilan hamkorlida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari

**To‘htaxo‘jayeva Maxliyoxon Omonullaxon qizi** (o‘qituvchi)[1]
maxliyoxon.tohtahojayeva@uztitu.uz | ORCID: 0009-0007-7987-0920
**Kadirova Gulchexra Baxodir qizi** (talaba)[1]

[1.] Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

***Annotatsiya.***
Mazkur tadqiqotda maktab muhitida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yuzaga keladigan konflikt va nizolarning psixologik-pedagogik omillari tahlil qilinadi hamda ularni konstruktiv bartaraf etish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, nizolar profilaktikasida samarali muloqot, mediatsiya yondashuvlari va pedagogik ta’sir usullarining ahamiyati ochib beriladi. Ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqilib, maktab–oila o‘zaro aloqasini mustahkamlashning amaliy yo‘llari asoslab beriladi
**Kalit so‘zlar:** konflikt, nizolar, o‘qituvchi, o‘quvchi, maktab muhiti, psixologik omillar, pedagogik yondashuv, mediatsiya, oila–maktab hamkorligi, kommunikatsiya

**Mavzuning maqsadi va dolzarbligi:** Bugungi kunda ta’lim jarayoni jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilib, uning dolzarbligi va ijtimoiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi shaxsning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali pedagogik muloqotni yo‘lga qo‘yish hamda ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ilmiy asosda hal etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish esa o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ushbu uch tomonning birgalikdagi faoliyati o‘quvchining bilim olishi, tarbiyasi va shaxs sifatida shakllanishida katta rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar va ota-onalar uchun farzand kelajagi uchun muhim maslahatlar keltirilgan. Bu tavsiyalar bolalarning bilimli, tarbiyali va mustaqil shaxs bo‘lib voyaga yetishiga yordam beradi. Biroq ayrim holatlarda ular o‘rtasida tushunmovchiliklar va ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday konfliktlar ta’lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktab muhitida yuzaga keladigan konfliktlarning sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganish muhimdir[1].

**Adabiyotlar sharhi:** Maktablarda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi konflikt va nizolarni bartaraf etish, shuningdek ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan muhim yo‘nalishlardan biridir. Ushbu muammo bo‘yicha bir qator mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xususan, A.S. Makarenko tarbiya jarayonida jamoaning rolini ta’kidlab, nizolarni bartaraf etishda o‘qituvchining yetakchilik pozitsiyasi va tarbiyaviy ta’sir kuchi muhimligini asoslab bergan. Uning fikricha, to‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik jamoa o‘quvchilar xulqidagi salbiy holatlarni kamaytirishda asosiy omil hisoblanadi.

L.S. Vygotskiy o‘quvchi shaxsining rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. U konfliktlarni ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonining tabiiy qismi sifatida baholab, ularni to‘g‘ri boshqarish orqali shaxs rivojlanishini rag‘batlantirish mumkinligini ta’kidlaydi.

A. Bandura esa ijtimoiy o‘rganish nazariyasida xulq-atvorning shakllanishida kuzatish va taqlid qilish muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Uning qarashlariga ko‘ra, o‘qituvchi va ota-onalarning xatti-harakati o‘quvchilarda ijtimoiy xulq normalarini shakllantirishda asosiy model bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotchilardan D. Goleman emotsional intellekt tushunchasini ilgari surib, konfliktlarni samarali hal etishda empatiya, o‘zini boshqarish va muloqot ko‘nikmalarining muhimligini asoslab beradi. O‘zbekistonlik olimlardan Sh. Abdullayeva, M. Qodirova va B. To‘xtayevlarning ishlarida ham maktabdagi nizolarni kamaytirish, o‘qituvchi va ota-onalar hamkorligini mustahkamlash masalalari yoritilgan. Ularning fikricha, maktab va oila o‘rtasidagi uzviy hamkorlik o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi konfliktlarni samarali boshqarish va ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish ta’lim jarayonining barqarorligi va sifatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Ushbu maqolada maktab sharoitida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi konfliktlarni o‘rganish hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash, shuningdek ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Nazariy asoslar sifatida pedagogika va psixologiya fanlarida shakllangan ilmiy qarashlar, konfliktologiya nazariyalari hamda shaxslararo munosabatlar haqidagi zamonaviy konsepsiyalar tahlil qilindi. Xususan, L.S. Vygotskiy, A. Bandura, D. Goleman kabi olimlarning ishlari hamda mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Konflikt tushunchasiga keladigan bo’lsak, bu ikki yoki undan ortiq tomonlarning manfaatlari, qarashlari yoki fikrlari o‘zaro mos kelmaganda yuzaga keladigan ziddiyatli holatdir. Maktab muhitida konfliktlar ko‘pincha o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona o‘rtasida paydo bo‘ladi. O‘qituvchi va ota-ona o‘rtasida ochiq va samarali muloqot bo‘lmasa, turli tushunmovchiliklar yuzaga keladi.

Insondagi eng yaxshi, olijanob fazilatlarni biri samimiylikdir. Deyarli kun ora ishlatiladigan bu so‘zning ma’nosiga ko‘pincha e’tibor bermaymiz. Aslida arab tilida o‘zlashtirilgan samimiyat, samimiy so‘zlarini o‘zbekchaga o‘girganimizda “boshqalar gapini tinglaydigan hamfikr bo‘la oladigan, habardor” degan ma’nolar chiqadi. Odob axloqning yaxshilik deb nomlanuvchi biri bo‘lgan samimiylik katta tushancha. Samimiyat kishilarning o‘zaro munosabat va muloqatida yuza chiqadi. Har kuni qanchadan qancha odamlar bir-birlari bilan muloqatda bo‘ladilar. Bolalar bilan munosabat jarayonida biz to‘gri so‘zlik, oq ko‘ngillilik, bag’rikenglik, bilimlilik Hozirgi kunda ba’zi oilalarda bolalarni tarbiyalashning asosiy ijtimoiy institut kabi ta’lim-tarbiya shakllangan bo‘lib, umumiy ta’lim muassasasi ota-onalar bilan o‘zaro aloqani yo‘lga qo‘ymoqda.[2]

Bolalik davrini surayotgan farzand uchun 1-sinfga borish hayotining eng muhim jarayonlardan biridir. Ilk o‘quv kunlarida o‘quvchilarning ko‘pchiligida stress holatlari yuzaga kelib, bu davrda ruhiy kechinmalar ustunlik qiladi. Bu ruhiy kechinmalarni yengish boladan kuchli irodani talab qiladi. Yuqoridagi jarayonlar bolada yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, bu bola ruhiyati va sog’lig’iga ta’sir qilib, salbiy oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar bilimini baholashda qo‘yilgan xatolar kompanentlarining o‘zgarishiga emas, balki butun o‘quv bilish faoliyatining o‘zgarishiga olib keladi. Ilk o‘quv kunlarida o‘quvchilarning ko‘pchiligida stress holatlari yuzaga kelib, bu davrda ruhiy kechinmalar ustunlik qiladi. Bu ruhiy kechinmalarni yengish boladan kuchli iroda (o‘ziga bo‘lgan ishonch, qat’iyatlilik, yuksak maqsad v.h.) ni talab qiladi. Shu o‘rinda dolzarb savol tug‘iladi: 6 yoshdan boshlab bolani maktab ta’limiga jalb qilish uning psixologik va emotsional rivojlanishiga qay darajada mos keladi? Mazkur jarayon bolaning stressga chidamliligi, ijtimoiy moslashuvi hamda kognitiv rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda chuqur pedagogik-psixologik tahlilni talab etadi. Ayrim holatlarda erta maktabga jalb etish bolada ortiqcha ruhiy zo‘riqish, o‘ziga ishonchsizlik va o‘quv faoliyatiga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli ota-onalar farzandini ta’lim muassasasiga berishda uning individual psixologik tayyorgarligini ham e’tiborga olishlari maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, hozirgi kunda ayrim ota-onalar farzandining sifatli ta’lim olishini istagan holda, ularning til bilish darajasi va psixologik moslashuvini hisobga olmasdan, ta’lim rus tilida olib boriladigan sinflarga yo‘naltirmoqdalar. Biroq bunday yondashuv har doim ham bolaning imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasiga mos kelmasligi mumkin. Shu bois, ta’lim tilini tanlashda faqat ijtimoiy talablar emas, balki bolaning individual rivojlanish xususiyatlari va psixologik holati ham asosiy mezon sifatida inobatga olinishi lozim.

Ota-ona farzandidan yuqori natijalar kutishi mumkin, o‘qituvchi esa o‘quvchining real imkoniyatlariga qarab baho beradi. Ba’zan ota-onalar farzandining olgan bahosidan norozi bo‘lib, o‘qituvchi bilan tortishuvga kirishadi. O‘quvchining xulqi yoki intizomi bilan bog’liq muammolar ham konfliktlarga sabab bo‘lishi mumkin. O‘quvchining yosh xususiyatlari, hissiyotlarni boshqara olmaslik yoki stress ham ziddiyatlarni kuchaytiradi[1].

Abdulla Avloniy ham o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli asarida shunday deydi: “Tarbiyani kimlar qilir? Qayerda qilir?” degan savol keladir. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchidan, maktab va madrasa tarbiyasidir”, -deydi. Shunday ekan, bola ta’lim tarbiyasida ota-ona savodxonligini oshirish maqsadida yurtimizda turli xil choralar ko‘rilyapti.

Bolani maktabda qanday o‘qishi ko‘p jihatdan oilasiga bog‘liq bo‘ladi. Bolani yaxshi o‘qishi uchun moddiy va ma’naviy g‘amxo‘rlik qilish muhimdir, ya’ni stol-stul, o‘quv qurollari va o‘qish muhitini yaratib bera olish kerak. O‘qituvchi o‘zining o‘quvchilarining oila muhiti, shart-sharoitlari bilan tanishib chiqishi bolani yanayam yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ota-onalar farzandlarini bo‘sh vaqtlarini foydali ishlarga bandligini ta’minlash kerak, o‘qituvchilar bilan birgalikda bolada kitobga mehrni oshirishi, ota-onalar va o‘qituvchilar yoshlarga o‘rnak bo‘la olishlari muhimdir. Maktabdan tashqari ham qo‘shimcha mashg’ulotlar (sport, musiqa yoki til) bilan bo‘sh vaqtini band qilishda moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir [4].

Ota-ona bilan hamkorlik - bu o‘quvchi (farzand) rivoji uchun o‘qituvchi va ota-onaning birgalikda ishlashi jarayonidir. Bu hamkorlik ta’lim sifati, tarbiya va bolalarning psixologik holatini yaxshilashda juda muhim. Bu - maktab va oila o‘rtasidagi doimiy aloqa, ishonch va birgalikdagi faoliyatdir. Asosiy maqsad - farzandning har tomonlama rivojlanishiga yordam berish, va o‘quvchi munosabatlariga asoslanadi. Hozirgi kunda ba’zi oilalarda bolalarni tarbiyalashning asosiy ijtimoiy institut kabi ta’lim-tarbiya shakllangan bo‘lib, umumiy ta’lim muassasasi ota-onalar bilan o‘zaro aloqani yo‘lga qo‘ymoqda. Shunday qilib, ota-onalar, bolalar va qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikning yangi turi rivojlanmoqda. Ushbu turdagi munosabatlarda bola endi ob’ekt emas, balki ta’lim faoliyatining sub’ekti bolib, maktab o‘qituvchilarining ota-onalar bilan

ishlash tizimining yetakchi g'oyasi har bir bolaning oilasi bilan hamkorlikni o'rnatish, o'zaro yordam berishi natijasida shakllanadi. Maqolada, shuningdek, ota-onalar, o'qituvchilar va maktab o'rtasidagi hamkorlikning samaradorligi va afzalliklari muhokama qilib o'tilmoqda. Ota-ona va maktab o'rtasidagi hamkorlik - bu farzand kelajagining poydevoridir. Agar bu aloqalar mustahkam bo'lsa, bola o'zini ishonchli, qo'llab-quvvatlangan va muvaffaqiyatli his qiladi.

Hamkorlikning noan'anaviy shakllari oila bilan ishlashning zamonaviy shakllari bo'lib, o'qituvchilarga ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va o'qitishda imkon qadar yordam berishga yordam beradi. Har bir ota-ona o'qituvchini bolani har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan ishida qo'llab-quvvatlashga intiladi. Ammo zamonaviy ota-onalar - bu paydo bo'lgan muammolarni, mavjud vaziyatni tahlil qilishga qodir bo'lgan bilimli odamlar, shuning uchun o'qituvchi oila bilan hamkorlikning yangi shakllaridan foydalanishi kerak. Umumiy ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikning ko'plab shakllari mavjud. Belgilangan maqsadlarga erishish va yuqori natijalarga erishish uchun o'qituvchi ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyatda turli xil hamkorlik shakllarini to'g'ri birlashtira olishi kerak. Har safar o'qituvchilar tarkibi har bir oilaning xususiyatlarini hisobga olgan holda kerakli, samaraliroqlarini tanlashi kerak. Axir hamkorlikning asosiy maqsadi ota-onalar bilan ittifoqdosh bo'lishdir. Shunday qilib, ota-onalar, bolalar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikning yangi turi rivojlanmoqda. Ushbu turdagi munosabatlarda bola endi ob'ekt emas, balki ta'lim faoliyatining sub'ekti bo'lib, maktab o'qituvchilarining ota-onalar bilan ishlash tizimining yetakchi g'oyasi har bir bolaning oilasi bilan hamkorlikni o'rnatish, o'zaro yordam berishi natijasida shakllanadi.

Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, umumiy ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlikning barcha shakllarining mazmuni o'quvchilarning barkamol rivojlanishiga qaratilgan faol ta'lim o'zaro ta'sirini yaratishdir. O'qituvchilar va ota-onalarning to'g'ri tashkil etilgan o'zaro aloqasi bolani yaxshiroq tushunishga, oilada va maktabda shaxsiy ta'lim muammolarini hal qilishning eng maqbul usullarini topishga yordam beradi. O'qituvchi esda tutishi kerakki, u foydalanadigan barcha shakllar bolalar, ota-onalar va maktab o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatishga, ularni bir jamoaga birlashtirishga, ularning muammolarini bir-birlari bilan bo'lishish va birgalikda hal qilish zarurligini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak. Oila va maktab hamkorligi maktab hayoti davomida davom etadigan jarayondir[5].

Konfliktlarning salbiy oqibatlari, maktabdagi ziddiyatlar bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

- o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishi pasayadi;
- o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi ishonch kamayadi;
- sinfdagi psixologik muhit yomonlashadi;
- o'quvchida stress va xavotir paydo bo'ladi.

Konfliktlarni bartaraf etish yo'llari sifatida quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkun:

1. Ochiq va hurmatli muloqot samarali yordam beradi: Ota-ona va o'qituvchi muammolarni tinch yo'l bilan muhokama qilishi kerak.
2. Hamkorlikni kuchaytirish: Ota-ona, o'qituvchi va maktab ma'muriyati birgalikda ishlasa, ko'plab muammolar oldi olinadi.
3. Psixologik yordam: Maktab psixologi konfliktlarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.
4. Farzand manfaatini birinchi o'ringa qo'yish: Har qanday muhokamada asosiy e'tibor o'quvchining rivojlanishiga qaratilishi kerak.
5. Mediatsiya va murosaga kelish.

**Tahlil va natijalar:** Maqolada maktab sharoitida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konfliktli vaziyatlar, ularning kelib chiqish sabablari hamda ularni bartaraf etish yo'llari o'rganildi. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik darajasi va uning o'quvchilar xulq-atvoriga ta'siri tahlil qilindi.

O'tkazilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, konfliktlarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- o'zaro muloqotdagi yetishmovchilik va tushunmovchiliklar;
- o'quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlari;
- o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlarning bir xilligi;
- oilaviy muhit va ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtirokining yetarli emasligi.

Tahlil natijalariga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabatlar shakllangan sinflarda konfliktlar darajasi sezilarli darajada past ekanligi aniqlandi. Bunday sinflarda o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasi va emotsional barqarorligi yuqori bo'lib, ular nizoli vaziyatlarni konstruktiv tarzda hal eta olishadi.

Shuningdek, ota-onalar bilan muntazam hamkorlik olib boriladigan sinflarda o'quvchilarning xulq-atvori barqarorligi va o'qishga bo'lgan motivatsiyasi yuqori ekanligi kuzatildi. Ota-onalar yig'ilishlari, individual suhbatlar va maslahatlar o'quvchilarning muammolarini erta aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi.

Tomonlar o'zaro kelishuvga erishish uchun bir-birini tushunishga harakat qilishi zarur.

Hamkorlikning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Farzandning o'qishidagi muvaffaqiyatni oshirish;
- Tarbiya jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- Muammolarni erta aniqlash va hal qilish;
- O'quvchining ijtimoiy va psixologik rivojini qo'llab-quvvatlash[2].

Bundan tashqari bola tarbiyasi bo'yicha Imom G'azzoliy bunday deydi: "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqsh-u tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallim-u ustozlari ham sherik bo'ladilar. Barkamol avlodni tarbiyalashda asosiy bo'g'inlardan biri ota-onalar va mahallalar bilan yaqin hamkorlikda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishga mas'ul bo'lgan ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat. Maktablarda ota-ona, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi konfliktlar tabiiy jarayon bo'lishi mumkin. Biroq ularni to'g'ri boshqarish muhimdir. Samarali muloqot, o'zaro hurmat va hamkorlik orqali bunday ziddiyatlarni kamaytirish mumkin. Eng muhimi, barcha tomonlar o'quvchining manfaatini ustuvor deb bilishi kerak. Shunda ta'lim jarayoni samarali va sog'lom muhitda kechadi.

**Xulosa va takliflar:** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin, maktablarda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konflikt va nizolar ko'pincha kommunikativ tushunmovchiliklar, psixologik xususiyatlarning yetarli inobatga olinmasligi hamda pedagogik yondashuvlarning mos kelmasligi natijasida yuzaga keladi. Ushbu nizolarni samarali bartaraf etish uchun, avvalo, o'qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish, individual yondashuvni kuchaytirish va empatik muloqotni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, nizolarni hal etishda ota-onalar bilan hamkorlik alohida o'rin tutadi. Oila va maktab o'rtasidagi uzviy aloqaning

mustahkamlanishi o‘quvchining xulq-atvori, emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalar bilan ochiq va ishonchli muloqot o‘rnatish, ularni tarbiyaviy jarayonning faol sub’ekti sifatida jalb etish nizolarning oldini olish va ularni konstruktiv hal qilish imkonini beradi. Natijada, o‘qituvchi –o‘quvchi – ota-ona uchligi asosida tashkil etilgan hamkorlik muhitida sog‘lom psixologik iqlim shakllanadi, bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

## References


1. Ta’lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: O‘zbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. -T.:O‘zbekiston, 2017.
3. Jo‘rayev R. Q., Safarova R. G’., Ibragimov X. I., Musayev U. q. Pedagogika fani Konsepsiyasi. // Xalq ta’limi, 2004, № 5, B. 8-4.
4. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”. “ Cho‘lpon”, 1994
5. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
6. G‘oziev E. Psixologiya (O‘smirlar psixologiyasi). Toshkent, “O‘qituvchi”, 1994. - 224b.